

## KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARDA CHAPAQAYLIKNING O‘QUV FAOLIYATIGA TA’SIRI

Toshkent shahar Uchtepa tumani

245-maktab amaliyotchi psixologi

Sulaymonova Munira Abdulkarimovna

e-mail:sulaymanovamunira322@mail.com

**Annotatsiya.** Mazkur ilmiy maqola kichik maktab yoshidagi bolalarda uchraydigan chapaqaylik (ambidekstria) xususiyatining o‘quv jarayonlariga ko‘rsatadigan ta’sirini keng qamrovli tahlil qiladi. Maqolada chapaqaylikning kelib chiqish sabablari, uning nevrologik va psixologik xususiyatlari, o‘quv jarayonidagi afzallik va qiyinchiliklari, xalqaro tajribalar, shuningdek, samarali pedagogik tavsiyalar yoritiladi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, chapaqay o‘quvchilar maxsus yondashuv orqali yuqori natijalarga erishishi mumkin

**Kalit so‘zlar:** chapaqaylik, ambidekstria, lateralizatsiya, kognitiv rivojlanish, ijodkorlik, pedagogika.

**Annotation.** This scientific article provides a comprehensive analysis of the impact of left-handedness (ambidexterity) on the learning processes of young school-aged children. It explores the causes of left-handedness, its neurological and psychological characteristics, advantages and challenges in educational settings, international experiences, and effective pedagogical recommendations. The findings indicate that left-handed students can achieve high academic performance with a tailored educational approach

**Keywords:** left-handedness, ambidexterity, lateralization, cognitive development, creativity, pedagogy.

**Аннотация.** В данной научной статье представлен всесторонний анализ влияния леворукости (амбидекстрии) на учебный процесс у детей младшего школьного возраста. Рассматриваются причины возникновения леворукости, её неврологические и психологические особенности, преимущества и трудности в образовательной среде, международный опыт, а также даны эффективные педагогические рекомендации. Результаты исследования показывают, что при индивидуальном подходе леворукие ученики могут достигать высоких учебных результатов

**Ключевые слова:** леворукость, амбидекстрия, латерализация, когнитивное развитие, креативность, педагогика.

Chapaqaylik – bu inson miyasining o‘ng yarimsharlarining faol ishlashi yani ustunligi va ikki qo‘lini teng darajada yoki bir qo‘lga nisbatan ko‘proq samarali ishlatish xususiyati bo‘lib hisoblanadi. Genetik omillar, prenatal rivojlanish jarayoni va miya yarim sharlarining faoliyati bu holatga asosiy sabab bo‘ladi. Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, dunyo aholisining 10–12% chapaqaydir. Bu ko‘rsatkichlar yildan yilga ortib kelmoqda. Buning asosiy sababi esa chapaqaylik endi zamonaviy dunyo insonlari tarafidan kasallik yoki qandaydir nuqson emas balki o‘ziga xos xususiyat yani individuallik deb qabul qilinishni boshladi. Shu sababdan endi chapaqay bolalar maktabgacha tarbiya va kichik maktab yoshidanoq o‘ng qo‘lga majburan o‘rgatilmayapti balki o‘zlarining psixologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda imkoniyatlaridan unumli foydalanilmoqda. Bu esa o‘z navbatida bugungi kunimizda chapaqay insonlarning o‘z qobiliyatlarini ko‘rsatishiga va chapaqaylarning sonini ortishiga, chapaqay insonlar o‘zlarining yangi qirralarini ochishiga xizmat qilmoqda. Chunki chapaqay bolalar miyasida o‘ng va chap yarim sharlar o‘rtasida kuchliroq aloqa mavjud bo‘lib, bu ijodiy fikrlash, noodatiy yechim topish va keng tafakkur qilish imkonini beradi. Olimlarning bir qismi bolada o‘naqay yoki chapaqaylik kichik maktab yosh davrida, ya‘ni 6-7 yoshda shakllanishini e‘tirof etadilar. Chapaqay odamlar qadimdan ma‘lum bo‘lsalarda, chapaqaylik faqatgina chap qo‘lning ustunlik qilishi bilan belgilanmaydi. Chap oyoq, chap quloq, chap ko‘z ustunligi haqida ham ma‘lumotlar mavjud. Bunday individual xususiyatlar bosh miya yarim sharlarining u yoki bu qismi ustunlik qilishi bilan bog‘liq.

Chapaqaylarning psixologik xususiyatlarini o‘rgangan olimlar quyidagilarni aniqlaganlar [1;2]:

- chapaqaylar ko‘proq gumanitar fanlarga, o‘naqaylar aniq fanlarga qiziqar ekanlar;
- chapaqaylar ko‘proq orzu qiladilar va ko‘pincha muammolarni og‘ir idrok etadilar;
- o‘naqaylar ko‘proq ijobiy emotsiyalarga berilsalar, chapaqaylar aksincha salbiy emotsiyalarga beriluvchan, ya‘ni pessimistroq bo‘lar ekanlar.
- chapaqaylar obrazlar bilan fikrlasalar, muammo ichiga tezroq kirsalar, o‘naqaylar muammoni qisllarga bo‘lib, bosqichma-bosqich o‘rganadilar, muammoni intuitiv hal qilish usullarini qidiradilar.
- chapaqaylar ko‘pincha yorqin individuallik, artistlik qobiliyatlari bilan ajralib turadilar, o‘zlarini san’atda yaxshi namoyon qiladilar.

Juda ko‘p tadqiqotchilar chapaqay bolalar o‘rtasida nevroz, rivojlanishida sustlashuv va buzilishlar ko‘p uchrashini ta’kidlaydilar. Chapaqay bolalarda ayniqsa nutq buzilishlari ko‘proq uchrarkan. Chapaqaylarda o‘qish va yozish buzilishlarining



yuqori foizi qayd etilgan. Angliyalik tadqiqotchi M.Annet kuchli chapaqaylar, kuchli o‘naqaylar va chapaqaylik va o‘naqaylik kuchli namoyon bo‘lmagan 5-11 yoshdagi bolalarda tadqiqotlar olib borib, u yoki bu qo‘lning ustunlik qilishi bolalar nutqiy qobiliyati va tafakkurning nutqqa bog‘liq bo‘lmagan shakllari bilan aloqadorligini aniqladilar. Tadqiqotchilar o‘naqaylik o‘rtacha namoyon bo‘lgan bolalar qobiliyatli ekanligini aniqlashga muvaffaq bo‘ldilar [3].

Maktablarda pedagoglar kichik sinflarda chapaqay o‘quvchilarni o‘ng qo‘lda yozishga majburlaydilar. Bu jarayonga ota-onalar ham qo‘shiladilar, xattoki bolalar chap qo‘lini bog‘lab ham qo‘yar edilar. Bunday majburlash bolalarda qo‘zg‘aluvchanlikning, o‘zini tuta olmaslikni kuchaytiradi, uyquning yomonlashishiga olib keladi. Maktabda bunday bola yozma ishlarni bajarishda tendoshlaridan ortda qoladi. Maktabdagi muvaffaqiyatsizliklar shunga olib keladiki, chapaqay maktab o‘quvchisida o‘qishga qiziqish yo‘qoladi.

Chapaqaylar rasm chizayotganda, plastilindan biror narsa yasayotganlarida tartibsiz bo‘ladilar. Ular shaklga emas, mazmunga ko‘proq e‘tibor qaratadilar. Juda ko‘p chapaqaylar yaxshi tennis o‘ynaydilar yoki qilichbozlikda ham ularga teng keladigani bo‘lmaydi.

Amerikalik tadqiqotchi Dj. Levi chapaqaylarda ko‘rish-fazoviy funksiya xususiyatlarini aniqlashga muvaffaq bo‘ladi. Juda ko‘p chapaqaylarda o‘ng yarim shar nutq funksiyalarining amalga oshishida ishtirok etishini hisobga olgan holda, u nutq va fazoviy ko‘ruv funksiyalari (o‘ng yarim sharga xos bo‘lgan) o‘zaro raqobatga kirishib, bunda nutq funksiyalari fazoviy ko‘ruv funksiyalarining past darajada tashkil etilishi bois ustunlik qilishini aniqladi [4].

Biroq bir qator mualliflar [5;6;7] verbal va noverbal funksiyalar o‘ng yarim sharda o‘zaro ta’sirga kirishib, bir-birini kuchaytiradi, bu esa yanada yuqori ijodiy qobiliyatlarni belgilab beradi. Xuddi shu holat chapaqay va o‘naqaylarni taqqoslaganda ham aniqlangan. Demak, aytish umkinki, chapaqay va o‘naqaylar bir-birlaridan nutqiy rivojlanishlari darajasi bilan deyarli farq qilmasliklari kerak. Lekin chapaqaylarda fazoviy ko‘rish funksiyasi nisbatan past ko‘rsatkichlarga ega bo‘lishi mumkin.

Shuni ta’kidlash joizki, chapaqaylarni o‘rganish hali o‘z yakuniga yetmagan va bu boradagi fikrlar bir-biriga zid va qarama-qarshi xarakterga ega. Olimlar bugungi kunda yangi texnologiyalar yordamida chapaqaylik tabiati, chapaqaylarga xos xususiyatlarni yanada to‘laroq ochib berishga harakat qilmoqdalar.



Bola kichik maktab yoshiga yetgach, uning psixik taraqqiyotida jiddiy o'zgarishlar yuzaga keladi. Chunki xuddi ana shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyati anchagina kuchaya boshlaydi. Kichik maktab yoshidagi bola mustaqil faoliyatda bo'la olishi uchun zarur bo'lgan ikkita qudratli kuchga ega. Birinchidan, ma'lum darajada o'ziga bo'ysundirilgan xarakter apparatiga, ikkinchidan esa, atrofidagi kata odamlar va o'z tengdoshlari bilan bir qadar erkin munosabatda bo'la oladigan nutqqa ega. Mana shuning uchun bu yoshdagi bolalarning xulq-atvorlari, xatti-xarakatlari, qiziqish va ehtiyojlari kichik maktabga tarbiya yoshidagi bolalarnikidan keskin farq qiladi. Bu esa, o'z navbatida, kichik maktab yoshidagi bolalar bilan kichik kichik maktab tarbiya yoshidagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga xam turlicha munosabatda bo'lishni taqozo qiladi. Kichik maktab yoshidagi davrda bolaning barcha psixik jarayonlari jadal rivojlana borib, uning tashki muxit bilan bo'lgan munosabatlarida anchagina o'zgarishlarni yuzaga keltiradi. Bir tomondan, bola kichik maktab yoshiga yetgach, kattalarning doimiy yordamlaridan ancha ozod bo'lib, ulardan bir qadar uzoqlashadi, ikkinchi tomondan, kattalar bilan bo'lgan munosabatlari murakkab, ko'p tomonlama xarakter kasb eta boshlaydi. Shu narsa xarakterliki, kichik kichik maktab yoshidagi bola doimiy yordam va g'amxo'rlik talab qiladigan obyektidan sekin-astalik bilan oila holida kichik maktab bolalar gruppasining faol a'zosiga aylana boshlaydi. Demak, bu davrdan boshlab, muhtojlikdan qutilib, o'zi xam boshqalarga ma'lum darajada yordam bera oladigan, uzining burchi, vazifalari, qiziqishlari hamda xilma-xil ehtiyojlariga ega bo'lgan shaxsga, jamoa a'zosiga aylana boshlaydi [8].

Chapaqaylilik o'z-o'zidan patologiya hisoblanmaydi, ko'pincha u qiyinchiliklarning sabablaridan biri sifatida qaraladi, ayniqsa o'qitishning boshlang'ich bosqichlarida, nozik motorika rivojlanayotganda ko'zga tashlanadi. Chapaqay bolalarni o'qitish samaradorligini oshirish uchun, chapaqaylilikning yuzaga kelish mexanizmlarini tushunib olish kerak. Yozish va rasm chizish va uning sifatidan doimiy qoniqmaslik, ota-onalar tomonidan doimiy ravishda tanqid ostiga olinish, o'qituvchilardan tanbeh eshitish bolada kuchli stress holatini yuzaga keltiradi, xavotirlanish darajasini oshiradi, muvaffaqiyatsizlikka olib keladi. O'qish va yozishdagi qiyinchiliklar o'ng qo'lda sekin maromda yozish, vaqtning chegaralanganligi va kattalarning noroziligi ko'pincha faqatgina maktabda emas, balki jismoniy va ruhiy salomatlikning buzilishida ham o'z aksini topadi. O'ylanmagan, asoslanmagan ravishda bunday toifa bolalar bilan ish olib borish nafaqat kutilgan natijaga olib kelmaydi, balki bolalar salomatligiga ham jiddiy zarar yetkazadi. Tadqiqotchilar ortda qolish, o'zlashtirmaslik stressi og'ir nevrozlarga olib kelishini,



salbiy emotsiyalar esa xulq-atvor tuzilmasiga qo‘shilib yo faoliyatga undashi yoxud undan qochish mexanizmlarini shakllanishiga olib kelishini e‘tirof etadilar. Chapaqay va o‘naqay bolalarda bosh miya faoliyatining tashkil etilishi turlicha bo‘lib, har qanday faoliyatda, jumladan yozish uchun ham yetakchi qo‘lni tanlash oson emas. Bolani yetakchi qo‘lni o‘zgartirishga o‘rgatib, kattalar ko‘pincha bosh miya faoliyatini ham qayta qurilishiga olib keladilar. Shuning uchun ham bu jarayon o‘ta murakkab amalga oshadi. Psixolog ham bolada qaysi qo‘l ustunlik qilishini bilishi juda zarur. Chapaqay bolalarning o‘quv jarayonidagi xususiyatlarini chuqur o‘rganish natijalari shuni ko‘rsatadiki, ularning neyropsixologik va ijodiy salohiyati juda yuqori bo‘lishi mumkin. Bunday bolalar uchun o‘quv jarayonida qo‘llaniladigan yondashuvlar standart uslublardan farq qilishi zarur. Chapaqaylik miyada yarim sharlararo axborot almashinuvining kuchli bo‘lishi, keng tafakkur va ijodkorlikni rivojlantirishi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, ular diqqatni jamlash, yozuv va motorik ko‘nikmalarni rivojlantirishda ba‘zi qiyinchiliklarga duch keladi. Shuning uchun, o‘qituvchilar tomonidan maxsus metodikalar va sabrli yondashuv qo‘llanilishi muhimdir.

Chapaqaylikning afzalliklari ko‘p: ular ijodiy fikrlash, noodatiy yechim topish va muammolarga innovatsion yondashishda yuqori natijalar ko‘rsatadi. Masalan, san‘at, musiqa, dizayn kabi fanlarda bunday o‘quvchilar ko‘proq muvaffaqiyatga erishishi mumkin. Biroq, o‘qishning dastlabki bosqichida yozuvga moslashish, daftar va qalamni to‘g‘ri tutish, yozuv yo‘nalishiga moslashish kabi muammolar ko‘proq uchraydi. Ushbu muammolarni yengish uchun o‘qituvchilar va ota-onalar bolaga qulay sharoit yaratishi, chap qo‘l uchun mos o‘quv anjomlaridan foydalanishi va qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirishi lozim.

Shuningdek, xalqaro tajribalar ham shuni ko‘rsatadiki, chapaqay bolalar uchun maxsus dasturlar ularning kognitiv va emotsional rivojlanishini yaxshilaydi. Bu dasturlar diqqatni jamlash, stressni boshqarish, motorik ko‘nikmalarni rivojlantirish va ijodiy salohiyatni oshirishga qaratilgan. Misol uchun, Finlandiyada bunday o‘quvchilar uchun moslashtirilgan metodlar qo‘llanilib, o‘quvchilarning natijalari sezilarli yaxshilangani kuzatilgan.

O‘zbekistonda ham chapaqay bolalar bilan ishlash bo‘yicha metodik ko‘rsatmalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilishi lozim. O‘qituvchilarning bunday bolalarga nisbatan to‘g‘ri yondashuvi nafaqat ularning o‘quv faoliyatini, balki psixologik barqarorliklarini ham ta‘minlaydi. Shu tarzda, chapaqay bolalar jamiyatga ijobiy hissa qo‘shuvchi, ijodiy va mustaqil shaxslar sifatida yetishib chiqadi.

Umuman olganda, maqolada berilgan nazariy asoslar va pedagogik tavsiyalar chapaqay bolalar salohiyatini to‘liq ochish, ularning o‘quv jarayonida duch keladigan qiyinchiliklarni yengish va jamiyatda muvaffaqiyatli integratsiyalashuviga yordam beradi. Bu esa, kelajakda iqtidorli, ijodkor va yetuk shaxslar yetishtirishga xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Кудряшов А.Ф. Лучшие психологические тесты / А.Ф. Кудряшов. – Петроком, 1992. – 318с.
2. Springer, S. P., Deutsch, G. **Left Brain, Right Brain: Perspectives from Cognitive Neuroscience** / S. P. Springer, G. Deutsch. — New York: W. H. Freeman, 1998. — 432 с.
3. Кабардов М.К., Матова М.А. Межполушарная асимметрия и вербальные и невербальные компоненты познавательных способностей / М.К. Кабардов, М.А. Матова // Вопросы психологии. - 1988. -№ 6. – С. 106.
4. Строгонова Т.А., Ореховая Е.В. Психология индивидуальных различий в младенчестве / Т.А. Строгонова // Вопросы психологии. - 1998.- № 1. – С.72.
5. Безруких М.М. Князева М.Г. Если ваш ребенок левша / М.М. Безруких, М.Г. Князева. – Тула, 1996. – 304с.
6. Доброхотова Т.А. Брагина Н.Н. Функциональная асимметрия и психопатология очаговых поражений головного мозга / Т.А. Доброхотова, Н.Н. Брагина. – М.: Медицина, 1994. – 359с.
7. Annett, M. **Left, Right, Hand and Brain: The Right Shift Theory** / M. Annett. — London: Lawrence Erlbaum Associates, 1985. — 272 с.
8. Большой психологический словарь. / Под ред. Мещерякова Б.Г., Зинченко В.П. – М. «Олма-Пресс». – 672с.
9. Rogers, L. J., & Andrew, R. J. (2004). Comparative Vertebrate Lateralization. Cambridge University Press.